

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№10-SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, OKTABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrayevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoira Azimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsent;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduxayidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.n., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Elektron nashr 661 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-oktabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI.....	7
Duschanov Alisher Sherzod o‘g‘li	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА: СЕЗОННОСТЬ И МИНИМИЗАЦИЯ ЕГО НЕГАТИВНОГО ВЛИЯНИЯ	14
Муминов Нозим Гаффарович, Қодирзода Фазлиддин Садриддин, Гусейнов Хафиз Фехруз Оғлу, Хубони Сорбон	
О‘ЗBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION PORTFELNI BOSHQARISHNING SAMARALI TIZIMINI JORIY ETISH.....	21
Madrimov Shuhrat Bahodir o‘g‘li	
О‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	28
Kadirova Maraljan Matyakubovna	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATI NATIJADORLIGI VA UNI SAMARALI BOSHQARISH.....	38
Muminov Dilmurod To‘xtasinovich	
О‘ZBEKISTONDA ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARI UCHUN AKSIZ SOLIG‘I BIRXILLASHTIRILGAN STAVKALARINING SANOAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI	45
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro‘zumurat o‘g‘li, Otabekov Otajon G‘ayrat o‘g‘li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
SANOAT INFRATUZILMASINING ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNI BOSHQARISH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	51
Rasulov Jamshid Karimovich	
О‘ZBEKISTONDA BIG DATA VA SUN‘IY INTELLEKT (AI) YORDAMIDA TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
THE ROLE OF AGRICULTURE IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY	66
Saurova Inobat Ikramovna, Kadirbergenova Shaydo Umirbekovna	
О‘ZBEKISTON QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	73
Temirov Azizbek Voit o‘g‘li	
UZUMCHILIK SOHASIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR VA ULARNING TAHLILI	87
Tursunov To‘lqin Jo‘raqulovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISH	98
Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNI VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	104
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
О‘ZBEKISTON HUDUDLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALANISH DARAJASI TAHLIL QILISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Ibragimov Bahrom Bahodirovich	
IPAKCHILIK KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH MODELLARINI ISHLAB CHIQISH.....	117
Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	124
Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ «УМНОГО ГОРОДА» В УПРАВЛЕНИЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫМ ХОЗЯЙСТВОМ	131
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли	

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМ РАЗВИТИЕМ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	141
Ортикхужаева Юлдуз Азатовна	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH USTUVOR MASALALARI.....	151
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
RESURS TEJAMKOR QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA TARMOQ SAMARADORLIGI.....	157
Allasugirov Nurmuxammed Baxtiyarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING ASSORTIMENT SIYOSATI VA UNI BOSHQARISHGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	163
Boboxo'jayev Baxtiyor Nazirxo'jayevich	
QURILISH SANOATI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MOHIYATI VA SHART-SHAROITIARI.....	170
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA MASHINAVIY O'RGANISH USULLARI ORQALI TALABNI TAHLIL QILISHGA USLUBIY YONDASHULAR.....	182
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА.....	189
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	198
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALAR EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	207
Karrieva Yakutjan Karimovna	
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	214
Ахмедов Камолхон, Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
FRANCHAYZING VA KLASSTER YONDASHUVI SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....	225
Sharibaev Rasuljon Nosir o'g'li, Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich, Ibragimov Isroil Usmanovich	
ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	231
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA MEZONLARI.....	238
Sharipov Rasulbek Siddiqovich	
PARKENT TUMANIDA OLTIN BEL TOG' KURORTINI RIVOJLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	246
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Fatema Nabizada Javid	
MINTAQADA KLASSTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MODELLARNI QO'LLASH MASALALARI.....	260
Kadirov San'at Yuldashevich	
AGROKLASSTERLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	266
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES MODELLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	273
Saatova Lolakhon Ergashevna	
HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA'SIRINI BAHOLASH.....	281
Salayeva Lobar Ulug'bek qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILLARI.....	290
To'rayev Sardorbek To'rayevich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	297
Turayev Og'abek Kaxramonovich	

TRANSFORMATSION IQTISODIY RIVOJLANISHDA SHAHAR BOSHQARUVINING YANGI MODELI SIFATIDA URGANCH TAJRIBASI	305
Radjabov Bunyod Madirimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIVAVIY PUL OQIMLARI VA STRATEGIK MARKETING INTEGRATSIYASI.....	312
Masharipova Shahlo Adambaevna	
EKSPORT FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI	320
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	328
Tursunxo'jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi	
OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	336
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SUN'IY INTELLEKT VA ANALITIK PLATFORMALAR YORDAMIDA RAQAMLI MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	345
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
BARQAROR MAHALLANI REJALASHTIRISHDA AQLLI MAHALLA TIZIMI IMKONIYATLARI.....	356
Qulmatova Sayyora Safarovna	
OLIY TALIMGA TALABALARNI JALB ETISHNING RAQAMLI MARKETING VOSITALARI	362
Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	
BANK MENEJMENTIDA MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARNI BOSHQARISH (CRM) TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	369
Kuliev Naim Xalimovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TASHKIOTLARINING IJTIMOY TARMOQLARDAGI REYTINGINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR	382
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
MINTAQAVIY XIZMATLAR SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MENEJMENT SIFATINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	388
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
FRANCHAYZING BRENDLARI UCHUN "BRENDLUK" KONSEPSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALARI.....	399
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQQA IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	410
Turayev Og'abek	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIRI	418
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING TASHQI SAVDO FAOLIYATIGA BANKLAR TOMONIDAN HISOB-KITOB XIZMATI KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	427
Ibodullayeva Ma'rifat To'liqin qizi	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA MEXNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	436
Yusupova Dildora Turadjanovna, Musayev Shavkatjon Kayumjonovich	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH	441
Jumayev Shuxrat	
IMPROVING CONSUMER RIGHTS PROTECTION MECHANISMS IN UZBEKISTAN'S AUTOMOBILE DELIVERY SYSTEM: LEGAL FRAMEWORKS AND DIGITAL TRANSFORMATION DIRECTIONS	450
Raupov Abdurahmon Ilhomovich	
АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ НА ТУРИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК КАРАКАЛПАКСТАНА	457
Хошимова Камилла Навфал кизи	
ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA LEAN MENEJMENT TAMOIYILLARI.....	473
Bakayeva Mohira Axrorovna	

TURIZMDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	484
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH..	498
Djumanov Sayitmurod Alimbekovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF BANK ASSET MANAGEMENT: LESSONS FROM THE EU DIGITAL FINANCE STRATEGY FOR UZBEKISTAN (JEAN MONNET MODULE)	505
Shirnova Shokhsanam	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	511
С. Х. Халиков	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТРАНСПОРТНЫХ УСЛУГ: ТЕНДЕНЦИИ, СТРУКТУРА И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ (ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА)	518
Кайыбеков Парухат Коньисбаевич	
BANK SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: FINTECH YECHIMLARI VA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH INNOVATSIYALARI.....	525
Rasulov Nuriddin Abdullayevich, Axmedova Nodira Abdurashid qizi	
UZUM YETISHTIRUVCHI KICHIK VA O'RTA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH UCHUN INNOVATSION RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI.....	530
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	541
Mamatkulova Nadira Makkamovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	555
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA 2026-YILGA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLIGAN TAKLIFLAR.....	564
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
SAVDO-MAMLAKAT IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRUVCHI MUHIM OMIL	575
Soliyev Axmadjon	
TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLİYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI	583
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH	591
Daniyarov Kuatbay Dauirxanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA TURAR-JOY KO'CHMAS MULK BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	601
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	610
Avazov Ixom Ravshanovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	618
С.Х. Халиков	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLARGA MOLİYAVIY YORDAM KO'PAYTIRISH	625
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	631
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI	642
Rahimov Akmal Matyaqubovich	
INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	653
Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna	

TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI

Rahimov Akmal Matyaqubovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: a.rakhimov@tsue.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirish tajribasi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda depozitlarning bank resurs bazasidagi oʻrni, depozit mahsulotlarining diversifikatsiyasi hamda raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlarning oʻsish xususiyatlari oʻrganildi. AQSH bank tizimida depozitlar hajmining yuqori darajada saqlanib qolishi, sugʻurtalangan va sugʻurtalanmagan depozitlar nisbatidagi oʻzgarishlar hamda vositachi orqali jalb qilingan depozitlar dinamikasi bank tizimi barqarorligini baholash nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari raqamli platformalar depozitlarni tezkor jalb qilish imkonini berishini, biroq ularning foiz stavkalariga sezgirligi va koʻchuvchanligi banklar uchun qoʻshimcha likvidlik risklarini yuzaga keltirishi mumkinligini koʻrsatadi. Maqolada AQSH tajribasi asosida depozit operatsiyalarini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarni ehtiyotkor va tizimli yondashuv asosida joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: tijorat banklari, depozit operatsiyalari, AQSH bank tizimi, raqamli platformalar, brokered depozitlar, bank barqarorligi, depozitlarni sugʻurtalash.

Аннотация

В данной статье научно и практически проанализирован опыт развития депозитных операций в коммерческих банках США. В исследовании рассмотрены роль депозитов в ресурсной базе банков, диверсификация депозитных продуктов, а также особенности роста депозитов, привлечённых через цифровые платформы. Проанализированы высокая сохраняемость объёма депозитов в банковской системе США, изменения в соотношении застрахованных и незастрахованных депозитов, а также динамика депозитов, привлечённых через посредников — с точки зрения оценки устойчивости банковской системы. Результаты исследования показывают, что цифровые платформы обеспечивают оперативное привлечение депозитов, однако их чувствительность к процентным ставкам и высокая подвижность могут создавать дополнительные риски ликвидности для банков. В статье обоснована необходимость внедрения цифровых инноваций в развитие депозитных операций на основе осторожного и системного подхода, с опорой на опыт США.

Ключевые слова: коммерческие банки, депозитные операции, банковская система США, цифровые платформы, брокерские депозиты, устойчивость банков, страхование депозитов.

Abstract

This article examines the experience of developing deposit operations in U.S. commercial banks from both theoretical and practical perspectives. The study analyzes the role of deposits in the resource base of banks, the diversification of deposit

products, and the growing importance of deposits attracted through digital platforms. Particular attention is paid to the dynamics of total deposits, the changing structure of insured and uninsured deposits, and the role of brokered deposits as a proxy for digital and third-party channels. The findings indicate that digital platforms enable banks to attract deposits more rapidly and efficiently; however, such deposits tend to be more sensitive to interest rate changes and may increase liquidity risks. Based on the U.S. experience, the article argues that the development of deposit operations through digital innovations should be implemented within a cautious and well-balanced regulatory and risk-management framework.

Keywords: commercial banks, deposit operations, U.S. banking system, digital platforms, brokered deposits, banking stability, deposit insurance.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatida depozit operatsiyalari bank resurs bazasini shakllantirishning eng muhim va barqaror manbasi hisoblanadi. Banklar tomonidan jalb qilinadigan depozit mablagʻlari kreditlash hajmini kengaytirish, investitsion faoliyatni moliyalashtirish hamda likvidlikni taʼminlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Shu sababli, depozit operatsiyalarini rivojlantirish masalasi bank tizimi barqarorligi va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish bilan bevosita bogʻliqdir. Jahon amaliyotida aynan depozit bazasining mustahkamligi banklarning uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritish imkoniyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida eʼtirof etiladi.

Globallashuv va moliya bozorlarining integratsiyalashuvi sharoitida tijorat banklari oʻrtasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda banklar uchun depozitlarni saqlab qolish va yangi omonatchilarni jalb etish nafaqat foiz stavkalari darajasiga, balki xizmatlar sifati, qulaylik darajasi, moliyaviy ishonchlilik hamda innovatsion yondashuvlarga ham bogʻliq boʻlib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasida depozit operatsiyalarining strategik boshqaruvi bank siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur nuqtai nazardan qaraganda, AQSH tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirish borasida oʻziga xos va mukammal tajribaga ega. AQSH bank tizimi uzoq yillik tarixiy shakllanish jarayonida depozitlarni jalb qilish, ularni himoyalash va samarali boshqarishning institutsional asoslarini yaratgan. Xususan, depozit mahsulotlarini keng diversifikatsiya qilish, omonatchilar huquqlarini kafolatlovchi mexanizmlarni joriy etish hamda raqamli texnologiyalarni faol qoʻllash orqali depozit operatsiyalarining barqaror oʻsishi taʼminlangan.

Soʻnggi yillarda moliyaviy texnologiyalar (fintech) rivoji va raqamli bank xizmatlarining kengayishi depozit operatsiyalarining mazmunini tubdan oʻzgartirdi. AQSH banklarida depozit hisobvaraqlari endilikda faqat mablagʻ saqlash vositasi boʻlib qolmay, balki kundalik moliyaviy boshqaruv, toʻlovlar va jamgʻarish jarayonlarini birlashtiruvchi kompleks xizmatga aylangan. Bu holat omonatchilar faolligini oshirib, banklar uchun barqaror va uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, AQSHda depozit operatsiyalarining rivojlanishida omonatchilar ishonchini ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Depozitlarni sug'urtalash tizimi, prudensial nazorat va bank faoliyati ustidan qat'iy tartibga solish omonat mablag'larining xavfsizligini ta'minlab, moliyaviy inqirozlar sharoitida ham depozitlar oqimining keskin kamayib ketishining oldini oladi. Bu esa depozit operatsiyalarini rivojlantirishda ishonch omilining hal qiluvchi rolini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirish tajribasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada depozit operatsiyalarining bank resurs bazasidagi o'rni, AQSH banklarida qo'llanilayotgan depozit mahsulotlari va ularni boshqarish mexanizmlari, shuningdek, depozit operatsiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va institutsional kafolatlarning ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari depozit operatsiyalarini takomillashtirish masalalarini o'rganishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi kutiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirishning AQSH tajribasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy yondashuv asosida sifat va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida depozit operatsiyalarining nazariy asoslari hamda AQSH bank amaliyotida shakllangan institutsional mexanizmlar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Metodologik yondashuv bank resurs bazasini shakllantirishda depozitlarning tutgan o'rni va ularni rivojlantirish omillarini tizimli ravishda ochib berishga yo'naltirildi.

Tadqiqotda dastlab umum-ilmiy bilish usullari qo'llanildi. Xususan, induksiya va deduksiya usullari orqali AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalarining alohida jihatlari asosida umumiy xulosalar shakllantirildi hamda mavjud nazariy qarashlar amaliy holatlar bilan solishtirildi. Tahlil va sintez usullari yordamida depozit mahsulotlarining tarkibi, ularning funksional xususiyatlari hamda bank faoliyatiga ta'siri izchil ravishda o'rganildi. Bu yondashuv depozit operatsiyalarining murakkab va ko'p qirrali tabiatini to'liqroq yoritish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda tadqiqot doirasida qo'llanilgan metodologik yondashuvlar asosida olingan tahliliy natijalar tizimli ravishda yoritiladi. Tahlil jarayoni AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalarining amaliy holatini, ularning rivojlanish dinamikasini hamda bank resurs bazasini shakllantirishdagi rolini aniqlashga qaratilgan. Olingan natijalar depozit operatsiyalarini rivojlantirish omillari va ularning bank faoliyatiga ta'sirini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Mazkur bo'limda depozit operatsiyalarining tarkibiy tuzilishi, depozit mahsulotlarining xilma-xilligi hamda omonatchilar xulq-atvoriga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy va institutsional omillar tahlil qilinadi. AQSH bank amaliyotida shakllangan depozit siyosati banklarning likvidlik darajasi, barqarorligi va raqobatbardoshligiga

qanday ta'sir ko'rsatayotgani ochib beriladi. Shu orqali depozit operatsiyalarining nafaqat miqdoriy o'sishi, balki sifat jihatidan takomillashuvi ham baholanadi.

Tahlil va natijalar bo'limida, shuningdek, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning depozit operatsiyalariga ta'siri alohida e'tibor bilan ko'rib chiqiladi. Depozitlarni masofaviy jalb qilish, onlayn hisobvaraqlar va avtomatlashtirilgan xizmatlarning kengayishi omonatchilar faolligi va depozitlar hajmining o'sishiga qanday ta'sir etayotgani ilmiy tahlil qilinadi. Bu jarayonlar depozit operatsiyalarining zamonaviy bank xizmatlari tizimidagi o'rnini yanada mustahkamlab borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur bo'limda olingan natijalar umumlashtirilib, AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalarini rivojlantirish tajribasining asosiy xususiyatlari aniqlanadi. Tahlil natijalari keyingi muhokama bosqichida chuqurroq sharhlanib, depozit operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

AQSH tijorat banklari amaliyotida depozit operatsiyalari bir necha turdagi depozit hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Har bir depozit turi o'ziga xos iqtisodiy mazmun, foydalanish tartibi va moliyaviy rejimga ega bo'lib, omonatchilar ushbu hisobvaraqlarning shartlarini oldindan puxta o'rganishi muhim hisoblanadi. Depozit hisobvaraqlarining bunday xilma-xilligi banklarga turli toifadagi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish, omonatchilarga esa o'z moliyaviy maqsadlariga mos instrumentni tanlash imkonini beradi.

AQSH banklarida keng tarqalgan depozit turlaridan biri jamg'arma hisobvaraqlari hisoblanadi. Ushbu hisobvaraqlar jismoniy shaxslarga shaxsiy xarajatlar uchun mo'ljallangan mablag'lardan alohida tarzda pul saqlash imkonini beradi. Jamg'arma hisobvarag'ining asosiy afzalligi shundaki, undagi mablag'lar bo'yicha foiz daromadi hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur depozit turi odatda mablag'larni muddatidan oldin yechib olish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Bu holat jamg'arma hisobvaraqlarini nisbatan yuqori likvidlikka ega depozit turi sifatida tavsiflash imkonini beradi. Natijada, omonatchilar uchun mablag'lar xavfsizligi bilan bir qatorda ularning foydalanish qulayligi ham ta'minlanadi.

AQSH bank tizimida depozitlarning yana bir muhim turi sifatida pul bozori hisobvaraqlari (Money Market Accounts – MMA) alohida o'rin tutadi. Ushbu hisobvaraqlar o'z xususiyatlariga ko'ra jamg'arma va joriy hisobvaraqlarga yaqin bo'lib, ular bo'yicha foiz daromadi odatda oddiy jamg'arma hisobvaraqlariga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Biroq MMA hisobvaraqlarini ochish uchun muhim talab sifatida nisbatan yirik miqdordagi boshlang'ich depozit kiritilishi talab etiladi. Amaliyotda bu summa, odatda, 2500 AQSH dollaridan 25 000 AQSH dollarigacha bo'lib, aniq miqdor tanlangan bank va uning depozit siyosatiga bog'liq holda belgilanadi. Mazkur talab MMA hisobvaraqlarini asosan moliyaviy imkoniyati nisbatan yuqori bo'lgan mijozlar uchun mo'ljallangan depozit instrumentiga aylantiradi[1].

Depozit sertifikatlari (Certificate of Deposit – CD) AQSH banklarida eng yuqori daromadlilikka ega depozit turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu depozit turi bo'yicha omonatchi o'z mablag'larini bankka qat'iy belgilangan muddatga joylashtiradi va

mazkur muddat davomida mablag'larni yechib olish huquqidan mahrum bo'ladi. Aynan shu cheklov evaziga banklar CD depozitlari bo'yicha yuqoriroq foiz stavkalarini taklif etadi. Agar omonatchiga belgilangan muddat tugashidan oldin mablag'lar zarur bo'lib qolsa, u holda shartnomani muddatidan oldin bekor qilish uchun jarima to'lanadi. Amaliyotda bunday jarima ko'pincha hisoblangan foiz daromadining qayta hisoblanishi yoki to'liq yo'qotilishi shaklida namoyon bo'ladi. Mazkur mexanizm omonatchilarni mablag'larni uzoq muddat davomida bankda saqlashga undaydi va banklar uchun barqaror resurs bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, AQSH banklarida depozitlar bo'yicha foiz daromadi odatda yillik foiz daromadliligi (Annual Percentage Yield – APY) ko'rinishida ifodalanadi[2]. APY ko'rsatkichi oddiy nominal foiz stavkasidan farqli ravishda murakkab foizlar mexanizmini, ya'ni foizlarga ham foiz hisoblanishini o'z ichiga oladi. Bu holat omonatchilar uchun depozitning haqiqiy daromadlilik darajasini yanada aniqroq aks ettiradi hamda uzoq muddatli jamg'arishning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, AQSH banklarida depozit hisobvaraqlarining turli shakllarda taklif etilishi depozit operatsiyalarining moslashuvchanligini ta'minlaydi. Bu esa banklarga turli moliyaviy ehtiyojlarga ega bo'lgan mijozlarni jalb qilish, omonatchilarga esa risk va daromadlilik nisbatini ongli ravishda tanlash imkonini beradi.

AQSH bank tizimida depozitlarni sug'urtalash mexanizmi omonatchilar manfaatlarini himoyalash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim institut sifatida qaraladi. Depozitlarni sug'urtalash deganda, bank faoliyati to'xtatilgan yoki bankrotlik holati yuzaga kelgan taqdirda, omonatchilarga ularning depozit mablag'larini belgilangan miqdorgacha qaytarib berish majburiyatini o'z ichiga olgan tizim tushuniladi. Mazkur mexanizm bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda moliyaviy inqirozlar sharoitida ommaviy mablag' yechib olish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

AQSH amaliyotida depozitlarni sug'urtalash summasi qat'iy belgilangan bo'lib, bir bankda bir omonatchi uchun maksimal sug'urta qamrovi 250 000 AQSH dollarini tashkil etadi. Ushbu limit omonatchining bankdagi hisobvaraqlari turi va egalik shakliga bog'liq holda qo'llaniladi. Natijada, jismoniy shaxslar va kichik biznes subyektlari o'z jamg'armalarining katta qismini xavfsiz saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

AQSHda depozitlarni sug'urtalash tizimi Federal depozitlarni sug'urtalash agentligi (Federal Deposit Insurance Corporation – FDIC) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu tashkilot 1933 yilda, Buyuk iqtisodiy inqirozdan so'ng, bank tizimiga bo'lgan ishonchni tiklash maqsadida tashkil etilgan. FDIC mustaqil federal agentlik bo'lib, uning asosiy vazifasi tijorat banklarida joylashtirilgan depozitlarning xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir[3].

Bank bankrotligi yuzaga kelgan taqdirda, FDIC depozitlarni qoplash jarayonida ikki asosiy mexanizmdan foydalanadi. Birinchi mexanizm bankrot bo'lgan bankni


boshqa sog'lom bank tomonidan sotib olinishi yoki unga qo'shib yuborilishi orqali amalga oshiriladi. Bunda yangi bank bankrot bankning barcha majburiyatlarini, jumladan omonatchilar oldidagi majburiyatlarini ham to'liq o'z zimmasiga oladi. Ushbu usul omonatchilar uchun eng qulay hisoblanadi, chunki ularning hisobvaraqlari uzluksiz faoliyatini davom ettiradi va mablag'lardan foydalanishda deyarli uzilish kuzatilmaydi.

Ikkinchi mexanizmda esa FDIC bankrot bo'lgan bankning depozitlarini to'g'ridan-to'g'ri o'zi qoplaydi. Bunda federal agentlik sug'urta qamrovi doirasidagi summalarni omonatchilarga bevosita to'lab beradi yoki boshqa bank orqali yangi hisobvaraqlar ochib, mablag'larni o'tkazib beradi. Ushbu usul bankni qayta tashkil etish yoki sotib olish imkoni bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi.

Mazkur sug'urtalash tizimi AQSH bank tizimida depozit operatsiyalarining barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Omonatchilar o'z mablag'larining davlat tomonidan kafolatlanganligini bilgan holda banklarga ishonch bilan depozit joylashtiradi. Natijada tijorat banklari uchun barqaror va uzoq muddatli resurs bazasi shakllanadi, bu esa kreditlash va investitsiya faoliyatining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, AQSHdagi depozitlarni sug'urtalash tizimi bank tizimi barqarorligining muhim institutsional ustuni hisoblanib, depozit operatsiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur tajriba boshqa mamlakatlar bank tizimlari uchun ham depozitlar xavfsizligini ta'minlashda samarali model sifatida qaralishi mumkin.

AQSH tijorat banklarida depozitlar hajmining o'sish dinamikasi bank tizimi barqarorligi va moliyaviy vositachilik salohiyatini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.



1-rasm. AQSH tijorat banklarida depozitlar hajmining o'sishi dinamikasi (trln. AQSH dollari)¹

¹ <https://fred.stlouisfed.org/series/DPSACBW027SBOG#> ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

AQSH Federal zaxira tizimi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil aprel holatiga tijorat banklarida jamlangan jami depozitlar hajmi 18 121,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich bank tizimida depozit resurslarining hanuz yuqori darajada saqlanib qolayotganini va aholining hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning banklarga bo'lgan ishonchi nisbatan barqaror ekanini ko'rsatadi.


Tarixiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH tijorat banklarida depozitlar hajmi uzoq muddatli o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, depozitlarning eng yuqori tarixiy darajasi 2022 yil mart oyida qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda jami depozitlar 18 225,7 mlrd AQSH dollariga yetgan. Bu holat pandemiya davrida davlat tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli fiskal rag'batlantirish choralari, aholi jamg'arish moyilligining oshishi hamda iste'mol faolligining vaqtincha pasayishining natijasi sifatida izohlanadi. Natijada bank tizimiga katta hajmdagi likvid mablag'lar oqimi kuzatilgan.

Shu bilan birga, tarixiy eng past ko'rsatkich 1973 yil yanvar oyida qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda tijorat banklaridagi depozitlar hajmi atigi 596,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bank tizimining o'sha davrdagi institutsional rivojlanish darajasi, iqtisodiyot hajmi va moliya bozorlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Mazkur raqamlar bilan hozirgi davr ko'rsatkichlarini qiyoslash AQSH bank tizimining yarim asrdan ortiq vaqt davomida naqadar kengayganini va chuqurlashganini yaqqol namoyon etadi.

2025 yil aprel holatidagi depozitlar hajmining 2022 yilgi rekord darajadan biroz past bo'lishi foiz stavkalari siyosatining qat'iylashuvi, inflyatsiyaga qarshi choralar hamda moliya bozorlarida muqobil investitsiya instrumentlarining jozibadorligi oshgani bilan bog'liq. Shunga qaramay, depozitlar hajmi tarixiy jihatdan yuqori darajada saqlanib qolmoqda, bu esa tijorat banklari uchun yetarli resurs bazasi mavjudligini anglatadi.

Mazkur tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalari iqtisodiy sikllar, pul-kredit siyosati va institutsional omillar ta'sirida shakllanadi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda depozitlar hajmining barqaror o'sishi bank tizimining yuqori darajada rivojlanganligini va omonatchilar ishonchining mustahkamligini tasdiqlaydi. Bu holat AQSH tajribasida depozit operatsiyalari bank tizimi barqarorligining asosiy tayanch omillaridan biri ekanini yana bir bor ko'rsatadi.

Raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlar AQSH bank amaliyotida depozit bazasini kengaytirishning eng tezkor kanallaridan biriga aylangan. Mazkur tushuncha ostida omonatchining bank filialiga bormasdan, mobil ilova yoki internet-banking orqali depozit hisobvarag'ini ochishi, mablag'ni joylashtirishi va uni masofadan boshqarishi bilan bir qatorda, depozitlarning uchinchi tomon platformalari orqali "tashkillashtirib" banklarga yo'naltirilishi ham nazarda tutiladi. Shuning uchun raqamli depozitlarni faqat "bank ilovasi" bilan cheklab qo'yish to'liq manzarani bermaydi: AQSH tajribasida ko'plab depozit oqimlari fintech hamkorlar, depozit "marketplace"lar va "cash management" servislar orqali bank tizimiga kirib keladi.[4].



2-rasm. Raqamli platformalar orqali depozit jalb qilish mexanizmi¹

Raqamli platformalar orqali depozit jalb qilish mexanizmi odatda shunday shakllanadi: platforma mijoz auditoriyasini (ilova foydalanuvchilari yoki servis mijozlarini) shakllantiradi, ularga depozit mahsulotini qulay interfeys orqali taklif etadi va mablag' oqimini hamkor bank(lar)ga yo'naltiradi. Omonatchi nuqtai nazaridan jarayon juda sodda ko'rinadi: "bir necha bosishda" hisob ochiladi va depozit joylashtiriladi. Bank nuqtai nazaridan esa bunday kanal depozit bazasini tez oshirish imkonini beradi, chunki filial tarmog'i, xodimlar soni yoki hududiy kengayish kabi an'anaviy resurslar bilan cheklanmaydi. Shu bilan birga, bunday depozitlar "narxga sezgir" bo'lishi ehtimoli yuqori: raqamli muhitda omonatchi yillik real daromadlilik ko'rsatkichi o'zgarsa yoki boshqa platforma yuqoriroq daromadlilik taklif qilsa, mablag'ni tez ko'chira oladi. Shu sababli bunday depozitlar bank resurs bazasini ko'paytirish bilan bir qatorda likvidlik riskini boshqarish talabini ham kuchaytiradi[5].

AQSHda vositachi orqali jalb qilingan depozitlar masalasining tartibga solinishi aynan shunday "platforma-bank" modellari kengayib borayotgan sharoitda yanada muhimlashdi. FDIC 2020 yildagi yangilangan yondashuvda vositachi orqali jalb qilingan depozitlarni aniqlash uchun "bright-line" mezonlarni va "primary purpose exception"ni qo'llash jarayonini tizimlashtirganini ochiq qayd etadi. Bu yondashuvning mohiyati shundaki, har qanday uchinchi tomon bilan bog'liq depozit oqimi avtomatik tarzda "brokered" deb olinmaydi; ayrim holatlarda vositachining asosiy maqsadi depozit joylashtirish bo'lmasa, istisno qo'llanishi mumkin. Biroq bu istisno ham depozit oqimining kelib chiqish modeli, shartnomaviy munosabatlar va amaliy funksiyaga qarab baholanadi. Natijada raqamli platformalar orqali depozit jalb qilish modeli nazorat nuqtai nazaridan aniq konturlarga ega bo'ladi va banklar resurs

¹ Nazariy ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

bazasini kengaytirishda regulyator talablari bilan uyg'un strategiya yuritishga majbur bo'ladi.

AQSH bank tizimida depozitlar barqarorligining so'nggi besh yillik dinamikasini ko'radigan bo'lsak, 2020–2022-yillarda ichki depozitlar hajmining keskin oshishi pandemiya davrida davlat fiskal rag'batlantirish choralari kuchayishi va aholi jamg'arish faolligining ortishi bilan izohlanadi. Shu davrda sug'urtalangan depozitlar ulushi yuqori darajada saqlanib, omonatchilar ishonchi mustahkam bo'lganini ko'rsatadi.

Raqamli platformalar va uchinchi tomonlar orqali jalb qilingan depozitlar uchun proksi sifatida qabul qilingan brokered depozitlar ulushi 2020 yildagi 9,7 foizdan 2024 yilga kelib 7,0 foizgacha pasaygan. Mazkur tendensiya banklarning depozit bazasini yanada barqaror manbalar hisobiga shakllantirishga intilayotganini hamda regulyatorlar tomonidan vositachi orqali jalb qilingan depozitlarga nisbatan ehtiyotkor yondashuv kuchayganini ko'rsatadi.

AQSH tajribasida raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlarni tahlil qilishda asosiy e'tibor faqat depozitlar hajmining o'sishiga emas, balki ularning iqtisodiy mazmuni va barqarorlik xususiyatlariga qaratilishi lozim. Raqamli kanallar depozitlarni jalb qilish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirgan bo'lsa-da, bu jarayon bank resurs bazasining sifat jihatlarini avtomatik ravishda yaxshilaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Aksincha, AQSH bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlar ko'pincha foiz stavkalariga yuqori darajada sezgir bo'ladi va bozor sharoiti o'zgarganda tezkor ko'chish xususiyatiga ega. Shu sababli bunday depozitlar bank likvidligi uchun qisqa muddatda qulay bo'lishi mumkin, biroq uzoq muddatli barqarorlik nuqtai nazaridan ehtiyotkor boshqaruvni talab etadi.

Raqamli depozitlar bilan bog'liq muhim jihatlardan biri sug'urtalangan va sug'urtalanmagan depozitlar nisbatidir. AQSHda FDIC tomonidan belgilangan 250 ming AQSH dollari miqdoridagi sug'urta limiti kichik va o'rta omonatchilar uchun ishonchni mustahkamlaydi[6]. Biroq raqamli platformalar orqali jalb qilinayotgan depozitlarning muayyan qismi yirik summalardan iborat bo'lib, ular ko'pincha sug'urtalanmagan depozitlar tarkibiga kiradi. Bunday mablag'lar professional investorlar yoki korporativ mijozlar tomonidan joylashtiriladi va ular bozor signallariga tezkor munosabat bildiradi. Natijada depozitlar hajmi o'sishi bilan bir qatorda, bank tizimida konsentratsiya va oqim riski ham ortadi.

AQSH regulyativ amaliyotida raqamli platformalar orqali kelgan depozitlar ko'pincha vositachi orqali jalb qilingan depozitlar sifatida baholanadi va ular bankning ulgurji moliyalashtirishga yaqin resurslari qatorida ko'rib chiqiladi. Bu holat ayniqsa bank kapitali yetarliligi bosim ostida bo'lgan davrlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Regulyatorlar bunday depozitlarga nisbatan ehtiyotkor yondashuvni qo'llab, banklarning haddan tashqari qisqa muddatli va narxga sezgir resurslarga tayanib qolishining oldini olishga intiladi. Shu bois ilmiy tahlilda raqamli depozitlarni mutlaq barqaror resurs sifatida emas, balki risk va foyda o'rtasidagi muvozanatni talab qiladigan moliyalashtirish manbai sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlarning barqarorligi ko'p jihatdan bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar chuqurligiga bog'liq. AQSH banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, agar depozit faqat yuqori foiz stavkasi taklifi asosida jalb qilinsa, u o'z mohiyatiga ko'ra vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Aksincha, raqamli depozitlar to'lov xizmatlari, bank kartalari, avtomatik jamg'arish mexanizmlari va shaxsiy moliyani boshqarish vositalari bilan integratsiyalashgan holda taklif etilsa, omonatchining bankka bog'liqligi kuchayadi. Bu esa depozitlarning "stickiness", ya'ni bankda uzoqroq saqlanib qolish ehtimolini oshiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari AQSH tijorat banklarida depozit operatsiyalarining rivojlanishi, ayniqsa raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlar dinamikasi bank tizimi barqarorligini baholashda murakkab va ko'p qirrali yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Tahlil shuni anglatadiki, depozitlar hajmining yuqori darajada saqlanib qolishi yoki o'sib borishi o'z-o'zidan bank resurs bazasining barqarorligini to'liq ifodalamaydi. Muhim jihat depozitlarning tarkibi, kelib chiqish manbai va omonatchilar xulq-atvori bilan bevosita bog'liqdir.

AQSH tajribasida raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlar banklar uchun operatsion jihatdan qulay va tezkor resurs manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Mobil ilovalar, onlayn hisobvaraqlar va uchinchi tomon platformalari banklarga geografik va institutsional cheklolrsiz keng auditoriyani qamrab olish imkonini beradi. Biroq bunday depozitlar ko'pincha foiz stavkalari o'zgarishiga sezgir bo'lib, ularning "ko'chuvchanlik" darajasi an'anaviy filial orqali jalb qilingan depozitlarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Shu sababli depozitlar hajmidagi ijobiy dinamika bilan bir qatorda, ularning barqarorlik darajasini ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida raqamli platformalar orqali jalb qilingan depozitlarni bevosita statistik jihatdan ajratib ko'rsatish cheklanganligi aniqlandi. AQSH rasmiy statistikasi depozitlarni kanal bo'yicha alohida tasniflamaydi, bu esa empirik tahlilda muayyan metodologik yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, vositachi orqali jalb qilingan depozitlar ko'rsatkichi raqamli va uchinchi tomon kanallari ta'sirini baholashda maqbul proksi indikator sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichning 2020–2024 yillarda nisbatan pasayib borishi banklarning depozit siyosatida barqarorroq va "munosabatga asoslangan" resurslarga ustuvorlik berishga intilayotganini ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, sug'urtalanmagan depozitlar hajmining o'sishi raqamli depozitlar tarkibida yirik summali va professional omonatchilar ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu holat depozitlar barqarorligini baholashda yangi muammolarni yuzaga chiqaradi, chunki bunday omonatchilar bozor signallariga tezkor munosabat bildiradi. Natijada, depozitlar umumiy hajmi barqaror bo'lib ko'rinsa-da, ichki tarkibiy siljishlar banklar uchun likvidlik va konsentratsiya riskini kuchaytirishi mumkin.

AQSH regulyativ yondashuvi ushbu jarayonlarga mos ravishda shakllanganini ham alohida ta'kidlash lozim. FDIC tomonidan brokered deposits bo'yicha joriy etilgan ehtiyotkor mexanizmlar raqamli platformalar orqali depozit jalb qilishni to'liq

cheklamaydi, balki uni nazorat ostida va muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuv banklarga raqamli innovatsiyalardan foydalanish imkonini berar ekan, bir vaqtning o'zida moliyaviy barqarorlikni saqlashni ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Federal Reserve Education. Types of Savings Accounts
<https://www.federalreserveeducation.org/resources/lessons/lesson--types-of-savings-accounts.pdf>
2. Consumer Financial Protection Bureau (CFPB). Regulation DD, Appendix A to Part 1030 — Annual Percentage Yield (APY)
<https://www.consumerfinance.gov/rules-policy/regulations/1030/A>
3. Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC). Deposit Insurance FAQs
<https://www.fdic.gov/resources/deposit-insurance/faq>
4. Board of Governors of the Federal Reserve System (US) (2025) Deposits, All Commercial Banks (DPSACBW027SBOG). FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/DPSACBW027SBOG>
5. Federal Deposit Insurance Corporation (2025) Balance Sheet: Total Liabilities and Capital: Deposits: Domestic Office Deposits (QBPBSTLKDPOFFDP). FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. Available at: <https://fred.stlouisfed.org/series/QBPBSTLKDPOFFDP>
6. Federal Deposit Insurance Corporation (2025) Quarterly Banking Profile (QBP). FDIC. Available at: <https://www.fdic.gov/quarterly-banking-profile>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**